



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

MUTAXASSIS NUTQINING LISONIY MATERIALINI TANLASH VA O'RGATISH XUSUSIDA

Topildiyeva Feruza Raximjonovna

O'zbekiston Milliy universiteti, katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqola mutaxassis nutqining lisoniy materialini tanlash va o'rgatish usullari, inson muloqotining ajralmas qismi bo'lgan nutq odobi va nutqning kommunikativ sifatleri masalasi kompleks yondashuv asosida tadqiq etadi. Shuningdek unda nutqning to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyliqi, tozaligi, qisqalik va o'rinlilik kabi sifatleri yoritilgan. Nutq to'g'ri bo'lishi uchun amal qilinishi kerak bo'lgan umumiy me'yorlar xususida, so'zga tushadigan urg'u, grammatik normalar borasida ham ma'lumotlar keltiriladi. Kommunikativ sifatlar nutqning tushunarli, ta'sirchan va adabiy til me'yorlariga mos bo'lishini belgilab, axborotning to'g'ri va to'liq yetib borishini ta'minlaydi, shuningdek madaniy nutq va moslashuvchanlik haqida ham fikr va mulohazalar atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: nutq, nutq madaniyati, lisoniy material, til me'yorlari, muloqot, kommunikatsiya, kommunikativ sifatlar, grammatik norma, aniqlik, mantiqiylik, til birliklari.

О ВЫБОРЕ И ОБУЧЕНИИ ЯЗЫКОВОМУ МАТЕРИАЛУ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ РЕЧИ СПЕЦИАЛИСТА

Топилдиева Феруза Рахимжоновна

Национальный университет Узбекистана, старший преподаватель

Аннотация

В данной статье комплексно рассматриваются вопросы отбора языкового материала профессиональной речи и методов его преподавания, а также речевого этикета и коммуникативных качеств речи, являющихся неотъемлемой частью человеческого общения. Также в ней освещаются такие качества речи, как правильность, точность, логичность, чистота, краткость и уместность. Приводится информация об общих нормах, которых необходимо придерживаться для правильности речи, а также об ударении в словах и грамматических нормах. Коммуникативные качества определяют понятность, выразительность речи и её соответствие нормам литературного языка, обеспечивая правильную и полную передачу информации, а также подробно рассматриваются вопросы культурной речи и адаптивности.

Ключевые слова: речь, культура речи, языковой материал, языковые нормы, общение, коммуникация, коммуникативные качества, грамматическая норма, точность, логичность, языковые единицы.

ON SELECTING AND TEACHING LINGUISTIC MATERIAL FOR PROFESSIONAL SPEECH OF SPECIALISTS

Topildiyeva Feruza Raximjonovna

National University of Uzbekistan, Senior Lecturer

Abstract

This article comprehensively examines the issues of selecting linguistic material for professional speech and methods of teaching it, as well as speech etiquette and communicative qualities of speech, which are an integral part of human communication. It also highlights such qualities of speech as correctness, accuracy, logic, purity, brevity, and appropriateness. Information is provided on the general norms that must be followed to ensure correctness of speech, as well as on word stress and grammatical norms. Communicative qualities determine the

clarity, expressiveness, and compliance of speech with literary language norms, ensuring the accurate and complete transmission of information; additionally, issues of cultured speech and adaptability are discussed in detail.

Keywords: speech, speech culture, linguistic material, language norms, communication, communicative qualities, grammatical norm, accuracy, logic, language units.

Nutq insonlar orasidagi asosiy muloqot vositasi bo‘lib, uning samaradorligi kommunikativ sifatlarga bevosita bog‘liqdir. Muloqot esa insonlar o‘rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan, axborot almashinuvi, o‘zaro ta‘sirning yagona yo‘lini ishlab chiqish, boshqa odamni idrok etish va tushunishdan iborat bo‘lgan aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirishning murakkab hamda keng qamrovli jarayonidir. Kommunikatsiya esa fanga XX asr boshlarida kirib kelgan bo‘lib, xabarni uzatish, fikr va ma‘lumotlar almashinuvi, ya‘ni muloqotni anglatadi. Kommunikativ vaziyat esa so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabat bo‘lib, muloqotning emotsionalligi rasmiy, neytral yoki do‘stona tarzda namoyon bo‘ladi.

Dunyoda turli-tuman kasblar, bir-biridan farq qiluvchi hunarlar mavjud. Ularning har birida o‘ziga xos ish qurollaridan foydalaniladi. Masalan, yozuvchining ish quroli — so‘z, dehqonning asosiy quroli — ketmon, duradgorniki — tesha, arra, randa va hokazo, jarrohniki — tig‘, tikuvchiniki esa igna, ip va boshqalardir. Faoliyatining asosiy quroli til bo‘lgan kasblar ham bor. Qaysi mutaxassis bo‘lishidan qat‘i nazar, tildan mohirona foydalanish bilimini olmagan, demakki, chinakam madaniy nutq malakasini egallamagan bo‘lsa, nutqi nochor va rangsiz bo‘lsa, uning bilimi qanchalik chuqur va mukammal bo‘lmasin, mehnati samarasiz bo‘ladi.

Nutq — tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shaklidir. Nutq so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko‘rinishi bo‘lib, u faqatgina lisoniy hodisa sanalmasdan, balki ruhiy va estetik hodisa ham hisoblanadi. Shuning uchun ham yaxshi nutq deyilganda aytilmoqchi bo‘lgan maqsadning tinglovchi yoki kitobxonga to‘liq yetib borishi, ularga ma‘lum ta‘sir o‘tkazishi nazarda tutiladi. Shunga ko‘ra nutq oldiga ma‘lum talablar qo‘yiladi. Bu talablar nutqning kommunikativ sifatlari bo‘lib, unda nutqning mantiqan to‘g‘ri, aniq, chiroyli va maqsadga muvofiq bo‘lishi nazarda tutiladi. Til egasi grammatikadan tashqari, vaziyat grammatikasini ham o‘zlashtirishi lozim, ya‘ni leksik birliklarning ma‘nosi, gapda joylashish tartibi qoidalarini o‘zlashtirish bilan birga, so‘zlovchi va adresat orasidagi munosabat, muloqot maqsadi va boshqa omillarni ham bilishi zarur bo‘ladi. Bularning barchasi til egasining kommunikativ salohiyatini belgilaydi, bu esa uning nutqining lisoniy materiali bilan oydinlashadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

1. Nutqning to‘g‘riligi. “To‘g‘rilik deganda, — deb yozadi V.G. Kostomarov, — nutq madaniyatining zarur va birinchi sharti sifatida adabiy tilning ma‘lum paytda qabul qilingan normasiga qat‘iy va aniq muvofiq kelishini, uning talaffuz, imloviy va grammatik normalarini egallashni tushunish lozim bo‘ladi” [8; 24-b.].

Nutqning to‘g‘riligi uning eng muhim aloqaviy fazilatidir. Chunki nutq to‘g‘ri bo‘lmasa, uning boshqa kommunikativ sifatlari, ya‘ni mantiqiyliqi, aniqligi, maqsadga muvofiqliqi ham izdan chiqadi.

Nutq to‘g‘ri bo‘lishi uchun, asosan, ikki me‘yorga — urg‘u va grammatik normaga qat‘iy amal qilish talab etiladi. So‘zlardagi urg‘uning ko‘chishi bilan ma‘noning ham o‘zgarib ketishi mumkinligini unutmash lozim. Masalan, *olma* so‘zi. Bu so‘zni alohida urg‘usiz olib qaraganda, uning qanday ma‘noda qo‘llanilayotganini aniqlash qiyin. Faqat urg‘u undagi ma‘noning aniqlanishiga ko‘maklashadi. Ya‘ni *olma* so‘ziga urg‘u birinchi bo‘g‘inga tushganda harakat, oxirgi bo‘g‘inga tushganda esa mevaning bir turi ma‘nosi anglashiladi. Tilimizda bunday so‘zlar anchagina: *hozir–hozir, yangi–yangi, yigitcha–yigitcha, o‘quvchimiz–o‘quvchimiz* kabi.

Tilimizda morfologik va sintaktik chalkashliklar tez-tez uchrab turadi. Ko‘pchilik holatlarda kelishik qo‘shimchalari farqlanmasdan ishlatiladi. Bu esa ba‘zan mazmunda xatolikka

olib kelishi mumkin: *Umrini tog'larda o'tkazgan odamning tabiat tilini bilmaydi, deyish qiyin* ("Qishloq haqiqati"). Tilimizning mohir bilimdoni A. Qahhor ham qaratqich va tushum kelishigining ba'zan farqlanmay ishlatilishidan o'zining "San'atkor" hikoyasida asar qahramonining savodsizligini fosh etishda ustalik bilan foydalanadi: *Pojarniy "gugurtni yerga tashlamang", dedi. Rejissyorimiz esa "gugurtning yerga tashlamang", dedi.*

2. Nutqning aniqligi. Nutqning aniqligi so'zning o'zi ifodalayotgan voqelikka mutlaqo mos va muvofiq kelishidir. Aniqlik nutqning muhim fazilatlaridan biri ekanligi qadimdan ma'lum. G'arb mutafakkirlari ham, Sharq olimlari ham aniqlikni nutq sifatlarining birinchi sharti deb hisoblaganlar. Aristotel: "Agar nutq noaniq bo'lsa, u maqsadga erishmaydi", — degan. Kaykovus esa: "Ey farzand, so'zning yuz va orqa tomonini bilgil, ularga rioya qilgil, so'zlaganda ma'noli gapir, bu notiqlikning alomatidir. Agar gapirgan vaqtingda so'zning qanday ma'noga ega ekanligini bilmasang, qushga o'xshaysan..." deydi. Yana u: "Shunday kishini notiq (suxango'y) deymizki, uning har so'zi xalqqa tushunarli bo'lsin va xalqning har so'zi unga ham ma'lum bo'lsin", deb ta'kidlaydi.

Aniqlik nutqning muhim xususiyati, fazilati sifatida fikrni yorqin ifodalash bilan, nutq predmetining ma'nosi bilan, nutqda ishlatilayotgan so'z ma'nolarini bilish bilan bog'liq bo'ladi. Agar notiq o'zi fikr yuritmoqchi bo'lgan nutq predmetini yaxshi bilsa, unga xos so'zlarni tanlasa va o'zi tanlagan so'zlarning ma'nolariga mos vazifalar yuklasa, nutqning aniq bo'lishi tayin. Demak, aniqlik nutqda so'z qo'llash me'yorlariga amal qilishdan iborat. Bu jihatdan aniqlik to'g'rilikning boshqacha ko'rinishi hisoblanadi.

Ba'zan notiq o'zi ishlatadigan so'zning ma'nosini bilishga uncha e'tibor bermaydi. Natijada so'zning ma'nosi nutqdan ko'zda tutilgan maqsadga mos kelmaydi. Ko'pincha bunga bir-biriga yaqin narsalarni anglatuvchi so'zlar sabab bo'ladi. Masalan, Abdulla Qodiriy yozuvchi Ma'ruf Hakimning "Qahramonning o'limi" hikoyasini tahlil qilib, "Botir beliga qator beshta bomba qistirib...", "Qo'liga bomba ushlagan holda ko'chaga yugurdi" jumllaridagi *bomba* so'zining noto'g'ri qo'llanilayotganini, yozuvchining *bomba* va *granatani* farqlamasligini tanqid qiladi.

Aniqlik ikki xil bo'ladi: narsaning aniqligi va tushunchaning aniqligi. Narsa aniqligi nutqda aks etgan mavjudlikdagi narsalar va hodisalar doirasi bilan nutq mazmunining munosabatida ko'rinadi. Nutqda mavjudlikning narsa va hodisalari to'g'ri aks etishi uchun notiq o'zi so'zlayotgan narsalarni yaxshi bilgan bo'lishi lozim. Nutq predmetini bilmaslik yoki chala bilish, shuningdek, ularni o'rganishda loqaydlik qilish orqasida yuzaga kelgan noaniqlik yoqimsiz bo'lib, tinglovchini ranjitadi. Masalan: "*Na tashkilotchilik, na rahbarlik, na bilimdonlik qobiliyati bo'lmagan kishi birdaniga kimning nazariga tushdi?*" (Gazetadan).

Tadqiqot metodologiyasi

Ko'rinadiki, so'zlovchi *na* yuklamasining nutqdagi ma'nosi *-ma* bo'lishsizlik qo'shimchasi anglatgan ma'noga teng ekanligini unutgan. Odatda *na* inkor yuklamasi ishtirok etgan gaplarning kesimi bo'lishli shaklda bo'ladi.

Nutqning har tomonlama to'g'ri bo'lishi uchun narsa aniqligining o'zi yetarli emas. Tushunchaviy aniqlik nutq mazmunining unda belgilangan tushunchalar tizimiga mos kelishini talab qiladi.

Shunday qilib, aniqlik nutqning aloqaviy fazilatlaridan biri bo'lib, u moddiy borliq bilan nutq mazmunining mosligi sifatida yuzaga chiqadi.

Aniq nutq yaratish so'zlovchidan quyidagilarni talab etadi:

a) tilning sinonimik imkoniyatlarini bilish va sinonimik qatorlardan keraklisini ajratib, nutqda qo'llash;

b) nutqda ishlatiladigan so'zning anglatgan ma'nolarini har tomonlama bilish;

d) so'zning ko'p ma'noliligiga jiddiy e'tibor berish, ko'p ma'noli so'z nutqda qo'llanganda uning qaysi ma'no qirrasini ko'zda tutilayotganini aniq tasavvur qilish, fikrning

yuzaga chiqishida bu soʻzning boshqa maʼno qirralari monelik qilish-qilmasligini koʻz oldiga keltirish;

e) omonimlarning xususiyatlarini bilish, chunki ularni bilmaslik aniqlikning buzilishiga olib keladi;

f) paronimlarni bilish, ulardagi tovush yaqinliklariga eʼtibor berish;

g) tor muhitda ishlatiladigan, chetdan kirgan, kasb-hunarga oid, arxaik, eskirgan, dialektizm soʻzlarning maʼnolarini yaxshi anglagan holda nutqqa kiritish.

3. Nutqning tozaligi. Nutqning tozaligi deganda, eng avvalo, uning adabiy tilning lisoniy normasiga muvofiq kelishi tushuniladi. Darhaqiqat, yaxshi, toza nutq hozirgi oʻzbek adabiy tili talablariga mos holda tuzilgan boʻlishi, turli til va gʻayriadabiy til elementlaridan holi boʻlishi kerak. Nutqimizning sofliqiga, asosan, quyidagilar xalaqit beradi:

1. mahalliy dialekt va shevalarga xos soʻz, ibora, shuningdek, grammatik shakllar, soʻz va soʻz birikmalarining talaffuzi va urgʻusi;
2. oʻrinsiz qoʻllangan chet soʻz va soʻz birikmalari;
3. jargonlar;
4. vulgarizmlar;
5. nutqda ortiqcha takrorlanadigan “parazit” soʻzlar;
6. kanselyarizmlar.

Sanab oʻtilganlardan oʻrinsiz foydalanish kundalik nutqni ham, badiiy nutqni ham xiralashtiradi. Har bir soʻzlovchi oʻz nutqining adabiy normalar darajasida boʻlishi uchun harakat qilishi lozim. Oʻz shevasiga xos boʻlgan til vositalarini nutqqa oʻrinsiz olib kirish nutqni buzadi. Biroq dialektizm va varvarizmlar badiiy asar tilida maʼlum badiiy-estetik vazifani bajarishi, muallifning maʼlum gʻoyasini, niyatini amalga oshirishga xizmat qilishi ham mumkin. Muallifning milliy koloritni berish uchun, asar qahramonining qayerlik ekanligiga ishora qilish uchun dialektizm va varvarizmlarga murojaat qilishi hatto zarurdir. Masalan: *“Yoshulli, siz buni emas, meni tinglang! Bu manglayi qoraning sherigi bor”* (T. Malik). Ushbu misolda dialektizmlar hududiy koloritni berishga xizmat qilayotgan boʻlsa, quyidagi misolda varvarizmlar, yaʼni chet soʻzlar xarakter yaratishda yozuvchiga koʻmaklashgan: *“Ishondim, oʻrtoq ginrol. Hammasi yest boʻladi. Uyda xaladiynada muzdagi bor, olib chiqaymi? Sizga tekin”* (T. Malik).

Tahlil va natijalar

Lahjaviy soʻzlarning badiiy adabiyotda oʻrni bilan ishlatilishi faqatgina maqsadga muvofiq boʻlib qolmasdan, adabiy tilimizning boyib borishiga, umumxalq tilidagi ayrim elementlarning saqlanib qolishiga ham xizmat qilishi mumkin. Masalan, nutq nihol oʻtkazish haqida boʻlganida adabiy tilda varianti yoʻq boʻlgan *xancha* soʻzi ishlatilsa va oʻz oʻrnida unga izoh berilsa, oʻrinli boʻlar edi. Chunki bu soʻz nihol oʻtkazish uchun kavlangan chuqurchaning nomi boʻlib, boshqa chuqurchalarga nisbatan ishlatilmaydi.

Ayrim kasb egalari va ayrim guruhlarining oʻz tili boʻlib, ular bu til orqali soʻzlashda boshqalardan ajralishga, ifodalanayotgan fikrlarini kishilardan bекitishga intiladilar. Bunday soʻzlar jargon soʻzlar deb ataladi. Masalan, *novcha* (aroq), *qizil* (vino) — ichuvchilar nutqiga xos.

Vulgarizmlarga axloq normalariga toʻgʻri kelmaydigan, kishini soʻkishda, haqoratlashda ishlatiladigan soʻzlar kiradi. Ularni ishlatish soʻzlovchining past madaniyatli, qoʻpol, johil kishi ekanligini koʻrsatadi. Badiiy adabiyotda ham ulardan foydalaniladi: — *Uxlab oʻtiribsanmi, xunasa?! Ming marta chaqirishim kerakmi?!* (T. Malik).

Parazit soʻzlar deb ataluvchi lugʻaviy birliklar ham til madaniyati uchun yotdir. Ular, asosan, soʻzlashuv nutqida koʻp ishlatilib, notiqning oʻz nutqini kuzatib bormasligi, eʼtiborsizligi natijasida paydo boʻladi va bora-bora odatga aylanib qoladi. A. Qodiriy “Mehrobdan chayon” romanida buxorolik Sharif boy nutqida *paʼlanat* (“padarlaʼnat”)ni parazit soʻz sifatida ishlatib, uning nutqini individuallashtirgan. Sharif boy har gapida bu soʻzni qoʻshib gapiradi: *“Sharif boy yostiqdан burilib, yonidagi uchinchi yigitga qaradi: — Paʼlanat, qachon kelgan ekan?”*

“Kanselyarizm”lar ish qog‘ozlari uchun zarur bo‘lgan, ma’lum bir shaklda saqlanadigan so‘z birikmalari va gaplardir. Ular o‘z o‘rnida juda zarur, chunki ish qog‘ozlari qat’iy bo‘lgan ma’lum shakllarni talab qiladi. Bunday “qat’iy shakllar”, shablonlar so‘zlashuv nutqiga, badiiy adabiyotga, publitsistikaga o‘tsa, nutqni buzishi mumkin. O‘rinsiz kanselyarizmlar majlislarda, kengashlarda, gazetalarda, radio va televideniyaedagi nutqlarda ko‘plab uchraydi.

“Bundan 365 kun muqaddam siz bilan biz o‘z hayotimizda qat’iy burilish yasab, zo‘r sinovlar sharoitiga bevosita qadam qo‘ydik...” (A. Qahhor). Gapdagi 365 kun muqaddam, qat’iy burilish yasab, zo‘r sinovlar sharoitiga bevosita qadam qo‘ydik birliklari siyqasi chiqqan bo‘lib, ular ijtimoiy hodisalarni ifodalashga moslashgan, bu o‘rinda esa nomuvofiqdir.

Xulosa va takliflar

Til dunyoni bilish, bilimlarni to‘plash, saqlash, keyingi avlodlarga yetkazish, ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go‘zallik kategoriyalarini voqelantirish kabi qator vazifalarni bajarishiga qaramasdan, uning asosiy vazifasi kishilar o‘rtasidagi aloqani ta’minlashdan iboratdir.

Birinchidan, nutq madaniyati jamiyat madaniy-ma’rifiy taraqqiyotining, millat ma’naviy kamolotining muhim darajasi va tom ma’nodagi madaniy kamolotning muhim belgisidir. Ikkinchidan, haqiqiy ma’nodagi madaniy nutq shaxs umummadaniy saviyasining muhim jihatlaridan biri sanaladi. Shuning uchun ham mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy islohotlar har qachongidan ham dolzarblik kasb etadi.

Respublikamizning “Davlat tili haqida”, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunlarida, “Harakatlar strategiyasi”da va boshqa ko‘plab hujjatlarda ma’naviy-ma’rifiy tarbiyaga, til masalalariga, uni yanada rivojlantirishga alohida ahamiyat beriladi. Jamiyatimizning har bir a’zosi, har qanday mutaxassis zamon bilan hamqadam bo‘lishi, eng avvalo, o‘z ona tilining sadoqatli sohibi bo‘lmog‘i lozim.

Til jamiyat bilan bog‘liq bo‘lib, uning ma’naviyati, ma’rifati va madaniyati bilan birgalikda yuksalib boraveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Jumaxo‘ja N. L. Istiqlol va ona tilimiz. — Toshkent: Sharq, 1998. — B. 53–54.
2. Qodiriy A. Mehrobdan chayon. — Toshkent, 2019. — 320 b.
3. Malik T. Shaytanat. — Toshkent, 2019. — 456 b.
4. Qahhor A. San’atkor (hikoya) // Ziyouz.com. — URL: <https://ziyouz.com>
5. Qilichev E., Jo‘rayev N. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. — Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
6. Hasanov B. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at. — Toshkent, 1993.
7. O‘rinboev B., Soliev A. Notiqlik mahorati. — Toshkent, 1984.
8. Костамаров В. Г. Культура речи и стиль. — М., 1960. — 24 с.